

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

YAZDONOVA SAXIBA KURBANOVNA

**ZAMONAVIY KIBERMAKONNING TA'LIM VA TARBIYA
SAMARADORLIGIGA SALBIY TA'SIRI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Content of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Yazdonova Saxiba Kurbanovna

Zamonaviy kibermakonning ta’lim va tarbiya samaradorligiga salbiy ta’siri 3

Яздонова Сахиба Курбановна

Негативное влияние современного киберпространства
на эффективность образования и обучения..... 27

Yazdonova Sakhiba Kurbanovna

Negative effects of modern cyberspace on education and educational
efficiency 51

E’lon qilingan ishlar ro’uxati

Список опубликованных работ
List of published works 56

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

YAZDONOVA SAXIBA KURBANOVNA

**ZAMONAVIY KIBERMAKONNING TA'LIM VA TARBIYA
SAMARADORLIGIGA SALBIY TA'SIRI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.DSc/Fal84 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Adulo Tadeush Ivanovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Xajiyeva Maksuda Sultanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Norqulov Suxrob Dusmuratovich
falsafa fanlari doktori, professor

Bekmuradova Gulshoda Hayitovna
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "____" _____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (0366) 239-13-87; faks: (0366) 239-11-40, 239-1892; faks: (0366) 239-11-40; emil: rektor@samdu.uz. Samarqand davlat universiteti, Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ ____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (0366) 239-13-87; faks: (0366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" _____ kunida tarqatildi.
(2024-yil "____" _____dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot negizida kibermakonning vositaviy elementlaridan sun'iy ong, raqamli iqtisodiyot, virtual muloqot, onlayn xizmat turlari mavqe jihatidan ijtimoiy trend darajasiga chiqib bormoqda. Bu davriy o'zgarish barcha sohalar singari ta'lim va tarbiya tizimi samaradorligini barqaror ravishda tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishda ham inqilobiy ta'sir etmoqda. Boshqacha aytganda, zamonaviy kibermakonda inson tafakkurini psixologik tahdidlardan himoya qilish, unga qarshi kiber himoya mexanizmini ishlab chiqish, kiber xurujlarga moyilligi oshib borayotgan yoshlar dunyoqarashini, intellektual salohiyatini asrashga qaratilgan mafkuraviy profilaktika xalqaro strategiyasini yaratish, kibermakon imkoniyatlarini jamiyat manfaatlariga adekvatlashtirish masalasi o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan ta'lim va tarbiya sofligini saqlash, zamonaviy ta'lim taraqqiyotida kibermakonga – kiber tahdid sifatida emas, balki ta'lim oluvchi shaxs manfaatlariga mos ravishda rivojlantiruvchi vositaga aylantirish metodologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llanilayotgan axborot texnologiyalarining kiber xavfsizligini ta'minlash, onlayn iste'molga kiritilgan ma'lumotlar ba'zasidan foydalanuvchi auditoriya (ta'lim va tarbiya oluvchi qatlam)ni yoshiga nisbatan "seleksiya" qiluvchi xavfsiz axborot tizimini joriy etish, yoshlarni kiber tahdid iskanjasiga tushib qolmasligini ta'minlovchi kiber axborot nazorati mexanizmini ishlab chiqish kabi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, har bir shaxsni kiber vositalardan ma'lumot olish faoliyatini tartibga soluvchi, "yashil-sariq-qizil" onlayn nazorat yo'lagini yaratish, virtual ta'lim dasturlarini standartlashtirish zarurati mavjud bo'lib, ularni yangilash, mavjudlarini takomillashtirish hamda tadrijiy ishlash rejimini umummilliy nuqtaga keltirish dunyo ilm-fanining dolzarb muammosi sifatida baholanmoqda.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlash, unga jamiyat kelajagining tamal toshi sifatida baho berish, yoshlar tarbiyasiga, ularni zamonaviy ilm qudrati bilan "qurollanishi"ga xizmat etuvchi barcha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Xususan, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi, ta'lim-tarbiya va ma'rifat jamiyat barqarorligining asosiy omilidir, yagona maqsadimiz – maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni Uchinchi Renessansning to'rt uzviy halqasiga aylantirishdan iboratdir umummilliy shiori ostida pragmatik islohotlar olib borilmoqda. Zero, "barchamiz bir haqiqatni chuqur tushunib, anglab olishimiz kerak: bugun gap xalqimiz, mo'min-musulmonlarimizning tinchligi va xavfsizligi, farzandlarimizning kelajagi, ta'lim-tarbiyasi va kamoli haqida bormoqda".¹ Shu

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: Ўзбекистон, 2021. –Б 412.

jihatdan ham, ta'lim va tarbiya sifat samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi har qanday omilga qarshi kurashish mexanizmlari, usul va vositalarini ilmiy tadqiq qilish obyektiv zaruratga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, shuningdek, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Qarori va O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi O'RQ-764-son "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi¹.

Zamonaviy kibermakonning ta'lim va tarbiya samaradorligiga salbiy ta'sirini baholash, unga qarshi ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy, psixologik kurash mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Education Development Center (AQSh), Bellevue University (AQSh), National Institute for Educational Policy Research of Japan (Yaponiya), University of Jyväskylä (Finlandiya), National Research Center for Applied Cybersecurity ATHENE (Germaniya), Institut kiberbezopasnosti i sifrovix texnologiy (Rossiya), O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi "Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi" (O'zbekiston) tomonidan muammoning metodologik jihatlarini qamrab oluvchi salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Dunyo ilm-fanining turli yo'nalishlarida zamonaviy kibermakon imkoniyatlaridan foydalanish metodologiyasini ishlab chiqish bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, resurslarni yaratish, onlayn kurslarni tashkil etish va axborot hujjatlarini tahlil

¹ Mavzu yuzasidan xorij tadqiqotlari sharhi quyidagi informatsion resurslarga tayangan holda tayyorlandi: <https://www.edc.org>; www.nier.go.jp; www.bellevue.edu; www.ktl.jyu.fi; www.fraunhofer.de; www.mirea.ru; www.tace.uz.

etishda formativ va summativ baholash tizimi amaliyotga kiritilgan (Education Development Center (AQSh); ta'limda tashkiliy, boshqaruv jihatidan kiberxavfsizlik tizimini joriy etish, yoshlarning bilim olishida, ularda ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishda kibermakon imkoniyatlarini xavfsizlantirish bo'yicha metodologik yondashuv yaratilgan (Center for Cybersecurity Education (AQSh); ta'lim-tarbiya uzviyligini ta'minlash, ichki va tashqi kiber psixologik ta'sir omillaridan ishonchli himoyalani sh strategiyasi (yapon milliy modeli) ishlab chiqilgan (National Institute for Educational Policy Research of Japan (Yaponiya); xalqaro miqyosda zamonaviy ta'limni rivojlantirishning multidisipliner formati taqdim etilgan (University of Jyväskylä (Finlandiya); jamiyat ijtimoiy qatlamining umumiy kiber xavfsizligi, hukumat manfaatlari uchun xavfsizlik yechimi ta'minlangan (National Research Center for Applied Cybersecurity ATHENE (Germaniya); kiberpoligon, sud-tibbiyot, texnik axborot xavfsizligi, himoyalangan apparat va tizimlar, intellektual sensorli tizimlar laboratoriyalari orqali kibertahdid ko'lamini monitoring qilib borilmoqda (Institut kiberbezopasnosti i sifrovix texnologiy (Rossiya); Axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va uni nazorat qilish mexanizmi yaratilgan (Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi (O'zbekiston).

Dunyoda ta'lim va tarbiya integratsiyasini ta'minlash, ularni tadrijiy taraqqiyot bosqichiga olib boruvchi ijtimoiy-psixologik aspektlarini topish, ta'lim va tarbiya jarayonini funksional imkoniyatlariga aniqlilik kiritish, bu yo'lda to'siq bo'luvchi kiber tahdidlarga qarshi kurash masalalarini o'rganish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ta'lim va tarbiya tizimida integrativ yondashuvni tadbii etish; tarbiya usullarini ta'lim va tarbiya transformatsiya bosqichida umummilliy qadriyatlarni hisobga olish; zamonaviy kiber tahdidlarni ta'lim va tarbiya tizim samaradorligiga salbiy ta'sirini baholash, olingan natijalar o'rtasidagi falsafiy, sotsiologik, psixologik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy aloqadorlikni topishga qaratilgan modellarni takomillashtirish, mavjudlarini "seleksiya" qilish va boshqalar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. XXI asr texnika va texnologiyalar rivoji uchun keng qamrovli imkoniyatlarni ochib, jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib keldi. Jumladan, davrlar osha sayqallashib, kristallashgan tizim shakliga kelgan, turli xalqlar milliy mentalitetining ajralmas qismiga aylangan ta'lim va tarbiya yo'nalishi ham kiber tahdidlar qurshovidan chetda qolmadi.

Kibermakon omili serqirra bo'lib, jamiyatning qabul qilish doirasiga qarab, o'z auditoriyasini, ta'sir mexanizmlarini belgilash imkoniyatlari keng bo'lganligi sababli uning qamrov darajasida cheksizlik tendensiyasi kuzatilmoqda, shu sababli bu makondagi mavjud tahdidlarga qarshi kurash mexanizmini joriy etishga ulgurmasdan turib, yangi tahdid yo'nalishlari ochilmoqda.

Jahonda bu fenomen (kibermakon) mohiyatini tushunish, uning imkoniyat darajalarini baholash, kiber tahdidlarga cheklov o'rnatish tizimini yaratish bo'yicha ko'plab sohalar kesimida tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotning predmeti, maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda zamonaviy kibermakonning ta'lim va tarbiya samaradorligiga salbiy ta'siri doirasida olinayotgan quyidagi ilmiy

natijalarni keltirib o'tishni joiz topdik: xorij olimlaridan U.F.Gibson¹ tomonidan ilk bor kibermakon tushunchasi ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lsa, uning (kibermakon) texnik qurilmadan, texnologik jarayon darajasidagi imkoniyatlariga gnoseologik yondashuv D.Ferreira² tadqiqotlarida ochiq lanadi.

A.Henriksen³ tomonidan ilgari surilgan nazariyaga ko'ra, jamiyat axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga (AKT) tobora ko'proq qaram bo'lib borar ekan, "Kibermakonning qaysi jihatini o'zgartirish, qaysi tomonlarini kuchaytirish zarur?" kabi savollar dolzarblashib boraverishi ontologik jihatdan tahlil etiladi. Kibermakon ta'sir vositalarini yo'nalishlar kesimida turkumlashtiradigan bo'lsak, kiberiqtisodiyotning kategoriyal ahamiyatini N.Shafqat va A.Masood o'z konsepsiyasida ochib beradi. Ularning fikricha, bugungi dunyoda kiberxavfsizlik bo'yicha qo'shimcha 1,5 million mutaxassislarga ehtiyoj sezilmoqda⁴, raqamli iqtisodiyotga qaram bo'lgan har bir davlat kiberxavfsizlik bo'yicha professional kadrlarga muhtojligicha qolmoqda. S.T.Adriano, J.Marie, G.Patrickia ilmiy xulosalarida – kibermadaniyat elementlarining ta'lim taraqqiyotidagi o'rni ko'rsatilgan. Ular tomonidan zamonaviy jamiyatda ta'lim masalasini isloh etishda har bir ta'lim agentining rolini, pedagogik faoliyatning murakkab tarmog'ida o'rnatilgan vazifalarni, tez-tez o'zgarib turadigan jarayonlarni (islohotlarni), raqamli tarmoq texnologiyalarining paydo bo'lishi bilan bog'liq yangi dinamikani oddiy texnologik qurilmalar sifatida emas, balki simbiotik⁵ harakat mahsuli sifatida tushunish kerakligi uqtiriladi.

MDH mamlakatlari olimlaridan E.Morozov tomonidan AQSh misolida kibermakon omilining siyosiy maqomi kiber tahdid aspektida⁶ ochib berilgan. M.A.Petlin o'z tadqiqotlarida⁷ kibermakonni jamiyat taraqqiyotining omili sifatida baholab, rivojlanish tendensiyasining ijtimoiy falsafiy aspektlarini umumnazariy kontekstda asoslashga harakat qiladi. Uning nazariyasida kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi ortidan virtual aloqaning yangi avlodi shakllanganligiga ko'proq urg'u beriladi. R.I.Vilkovning ilmiy-nazariy ma'lumotlari bo'yicha, virtual haqiqat tushunchasi, asosan, kibermakon tushunchasi bilan bog'lanayotganligi, shuning uchun ham virtual haqiqatning har bir turi fazoviylik kabi muhim xususiyat⁸ kasb etib, ijtimoiy hayotimizdan muqim o'rin olayotganligi keltiriladi. I.A.Negodayevning ta'kidlashicha: "Kompyuter olamining virtual haqiqati shundaki, uning har bir bosqichida kibermakonning

¹ William G. Burning Chrome. –New York. Ace Books, 1987. –203 p.

² Ferreira D. & Vale. M. (2021) From cyberspace to cyberspatialities? Fennia. 199 (1). –P. 116

³ Anders H. The end of the road for the UN GGE process: The future regulation of cyberspace // Journal of Cybersecurity. Volume 5. Issue 1. 2019. –P.1-2.

⁴ Shafqat. N. and A. Masood. Comparative Analysis of Various National Cyber Security Strategies // International Journal of Computer Science and Information Security. 2016. 14 (1). –P. 129-146.

⁵ Adriano C.T., and others. A virtualização da aprendizagem: novas perspectivas na cibercultura. Revista Brasileira de Computação Aplicada. –Passo Fundo, 2009. –P. 42-52.

⁶ Morozov E. (2011). Taming Cyberspace. Index on Censorship, 40 (1). –P. 50-55.

⁷ Петлин М.А. (2014). Социально-философские аспекты киберпространства // Вестник Омского университета. –№ 3. (73), –С. 89-90.

⁸ Вилков Р.И. Киберпространство как социо-культурный феномен, продукт технологического творчества и проективная идея. Автореф. Дисс., канд. филос. наук. –Екатеринбург, 2009.

interaktiv grafik tasvirlanganligini ko‘rish mumkin”.¹ Bu, albatta, ta’limning sifat samaradorligiga u yoki bu darajada ta’sir etadi.

O‘zbekiston olimlaridan S.S.Babadjanov va boshqalar mediaaxborotning ijtimoiy-sotsiologik imkoniyatlariga ko‘proq e’tibor qaratishadi. Ular kibermakonning globallasuvi sharoitida o‘quvchi yoshlarga qo‘yayotgan yangicha talablarni izohlab, mediaxavfsizlik sifatini oshirish orqali axborot xurujlaridan himoya qilish vositalarining mazmun va mohiyat jihatidan² oshirish mumkin, deb hisoblaydi. N.Qosimova kibermakon fazosida yuzaga kelayotgan kiber tahdidlarga e’tibor qaratib, onlayn tarmoqlaridagi firibgarliklarning keng yoyilishi, axborotning tez tarqalishi oqibatida nosahih axborotlarni oshib borishi natijasida sahih axborotni mavhumlashib borayotganligini³ asoslashga harakat qiladi. O‘.D.Rajabov kibermakon omilining ta’sir kuchini iqtisodiy ta’limga bog‘lab, insonning iqtisodiy bilimlarni egallashi va iqtisodiy tarbiyaga ega bo‘lishi, iqtisodiy madaniyatligini ta’minlaydi. Iqtisodiy tarbiyaning maqsadi iqtisodiy madaniyatni shakllantirishdan iborat.⁴ Ammo har ikki holatda ham zamonaviy kibermakon ta’siridan chiqib ketishning iloji yo‘q, degan xulosani asoslashga urinadi. D.Kalandarova ta’lim va tarbiya o‘rtasidagi funksional integratsiyalashuvda kibermakonni katta imkoniyat va to‘siq deb biladi hamda zamonaviy kibermakonning yoshlar ongi va dunyoqarashida muqim o‘rin egallab qolayotganligini ko‘rsatuvchi sotsiologik yondashuvni ilgari suradi. Uning fikricha, hozirda yoshlar tomonidan asosiy axborotlar internet orqali izlanib, qabul qilinish darajasi 60 foizni tashkil qilmoqda.⁵

Yuqorida keltirib o‘tilgan tadqiqot natijalaridan ko‘rish mumkinki, zamonaviy kibermakonning ta’lim va tarbiya samaradorligiga salbiy ta’siri ijtimoiy-falsafiy jihatdan to‘g‘ridan to‘g‘ri tadqiqot obyekti sifatida qaralmagan. Biroq ushbu tadqiqotlar kibermakon fenomeni mohiyatini ochishga qaratilmagan, degan fikrdan yiroqmiz. Chunki, olib borilgan har bir tadqiqot xususiy yoki umumiy jihatdan bo‘lsa-da, kibermakonning qaysidir xususiyatlarini o‘z ichiga qamrab olgan. Bizning tadqiqotimizda zamonaviy kibermakonning ta’lim va tarbiya samaradorligiga salbiy ta’siri ijtimoiy-falsafiy polifunksional-differensial yondashuv asosida ko‘rib chiqilib, muammoning boshqa omillar bilan bog‘liqligi alohidalikdan umumiylikka o‘tish tamoyilida qaralib, kibermakon maxsuslik kategoriyasi sifatida baholanadi hamda ta’sir elementlar diffuziyasini ochiqlashga qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining

¹ Негодаев И.А. Информатизация культуры. Монография. –Ростов н/Д. 2003., –320 с.

² Babadjanov S.S., Metinov D.M. Kibermakon sharoitida jamyatni axborot xurujlardan himoya qilishning samarali vositasi sifatida mediaxavfsizlikni zaruriyati // “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal. Volume 3. Issue 2. 2022. –Б. 691.

³ Қосимова Н. Демократик янгиланишлар жараёнида интернет глобал тармоғида журналистлар фаолиятини бошқарувчи ахлоқий меъёрларнинг роли // rif.uz

⁴ Ражабов Ў.Д. Иқтисодий таълимнинг иқтисодий тафаккурга таъсири // Современное образование (Узбекистан). –№ 11. 2017. –Б. 11-15.

⁵ Kalandarova D. Features of aspects of information exchange // The Light of Islam. –№ 1. 2020. –P. 210-214.

ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq CY-01-son “O‘zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning falsafiy asoslari” nomli tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ta’lim va tarbiya jarayonini tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishda sifat samaradorligiga salbiy ta’sir etuvchi kibermakon omillarini aniqlash va ular o‘rtasidagi dialektik aloqadorlik kuchini topishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kibermakon frazasi doirasida yuzaga kelayotgan aksiologik deformatsiyalashuv jarayonlarini aniqlash;

zamonaviy kibermakonda ta’lim va tarbiya jarayonini milliy mentalitetga mos ravishda tashkillashtirish strategiyasini amaliyotga kiritish zaruratini ilmiy asoslash;

kibermakon kategoriyasini polifunksional ta’sir vositasi sifatida baholab, uni ta’lim va tarbiyaga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirini kamaytirish mexanizmini ishlab chiqish;

ta’lim va tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir etuvchi kibermakon omillarini namoyon bo‘lish xususiyatlariga ko‘ra turkumlashtirish;

ta’lim-tarbiya samaradorligiga ta’sir etuvchi kibermakon vositalari (kompyuter, telefon, internet, audio va video)ni harakatlanish dislokatsiyasini korrelyatsion uslubda ochib berish;

zamonaviy kibermakonda “oila-mahalla-ta’lim dargohi” tamoyilini joriy etish zaruratini isbotlashga qaratilgan sotsiometrik tadqiqot o‘tkazish, olingan natijalarni matematik metod yordamida tahlil etish;

kibermakonning psixologik ta’siridan xoli ta’lim-tarbiya muhitini yaratishning real makon imkoniyatini hisobga olish zaruratini falsafiy jihatdan asoslash hamda pragmatik taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini zamonaviy jamiyatda ta’lim va tarbiya samaradorligiga salbiy ta’sir etuvchi kibermakon vositalari (televideniye, kompyuter texnologiyalari, telefon, planshet, internet, ijtimoiy tarmoqlar, audio-video mahsulotlar) tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti kibermakonning ta’lim va tarbiya samaradorligiga salbiy ta’sir etuvchi elementlarini aniqlash va ular o‘rtasidagi differensiallashish jarayonini ilmiy asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, mantiqiylik, taqqoslash, korrelyatsiya va umumlashtirish, modellashtirish, abstraktlashtirish, qiyosiy tipologik, faktorial tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kibermakon frazasi doirasida yuzaga kelayotgan aksiologik deformatsiyalashuv jarayonlarining ta’lim va tarbiyaga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirini oldini olish bilan bog‘liq ta’qiqlovchi va baholovchi mezonlari ochib berilgan;

zamonaviy kibermakonda ta’lim va tarbiya jarayonini milliy mentalitetga mos ravishda tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishning pragmatik vositalari mantiqiy asoslangan;

ta'lim-tarbiya sifatiga destruktiv ta'sir etuvchi kompyuter, telefon, internet, audio va video mahsulotlarining kibermakondagi harakatlanish mexanizmini umumiylikdan xususiylikka o'tish bosqichi korrelyatsion (o'zaro ta'sir omillariga ko'ra) uslubda isbotlangan;

zamonaviy kibermakonda barqaror ta'lim va tarbiya olish tizimi samaradorligini ta'minlashda "oila-mahalla-ta'lim" bilan bog'liq ijtimoiy muhitning funksional integratsiyalashuvini kuchaytirish imkoniyatlari integral xususiyatiga ko'ra mantiqiy dalillangan;

kibermakonning psixologik ta'siridan xoli ta'lim-tarbiya muhitini yaratishda ijtimoiy makon, real zamonga bog'liq komponentlar (hudud, muhit, sotsial munosabat)ni hisobga olish zarurati falsafiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

zamonaviy kibermakonning ta'lim va tarbiya tizim samaradorligiga salbiy ta'sirini aniqlashtirishga qaratilgan regulyativ-baholovchi mezonlar ko'rsatilib, olingan ilmiy-nazariy natijalar alohidalik, maxsuslik, umumiylik, tarixiy-mantiqiy izchillik, vorisiylik kabi kategoriyalari asosida ijtimoiy-falsafiy tahlil etilib, pragmatik taklif va tavsiyalar berilgan;

tadqiqot jarayonida sotsiologik so'rovnoma o'tkazilib, olingan natijalar statistik tahlil qilinib, respondentlar bergan javoblar o'rtasidagi korrelyatsion aloqadorlik koeffitsiyenti topilgan;

ishning ilmiy natijalaridan davlat organlari va mutasaddi ommaviy fuqarolik tashkilotlarining sohaga oid dasturlarini ishlab chiqishda, oliy ta'lim dargohlari o'quv adabiyotlarini tayyorlashda foydalanilgan;

jamiyat taraqqiyoti yo'lida barqaror ta'lim va tarbiya tizim samaradorligiga olib boruvchi ilmiy-nazariy xulosalar, metodologik tavsiyalar, praksiologik takliflar mutasaddi tashkilotlar faoliyatida foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan monografiya xulosalarida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ilmiy natijalaridan "Fan falsafasi", "Ta'lim falsafasi", "Dialektika va bilish nazariyasi", "Media savodxonlik va axborot madaniyati", "Kiberxavfsizlik asoslari", "Raqamli kriminalistika", "Sun'iy intellekt asoslari", "Inson va kompyuterning o'zaro ta'siri", "Tizimli tahlil" "Falsafa va fan metodologiyasi" kabi fanlar doirasida foydalanish, shuningdek, mavzu doirasidagi keyingi tadqiqotlar uchun metodologik-nazariy material sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa unda ilgari surilgan yondashuvlar – ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlash, ta'lim sofligini tashqi ta'sirlardan asrash, tarbiya borasida asrlar davomida sinovdan o'tgan milliy qadriyatlarga tayanish borasidagi hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy islohotlarning normativ-huquqiy hujjatlarni

ishlab chiqishda, shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy kibermakonning ta'lim va tarbiya samaradorligiga salbiy ta'sirini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, ular o'rtasidagi korrelyatsion aloqadorlik koeffitsiyentini topish, ta'lim va tarbiya sofligiga, funksional integratsiyalashuviga olib boruvchi ijtimoiy drayverlar tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy natijalar asosida:

kibermakon frazasi doirasida yuzaga kelayotgan aksiologik deformatsiyalashuv jarayonlarining ta'lim va tarbiyaga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini oldini olish bilan bog'liq ta'qiqlovchi va baholovchi mezonlari ochib berilganligiga doir xulosa va amaliy takliflardan O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan 40 ta qonunchilik hujjatlari, 21 ta hukumat qaror loyihalarini va davlat boshqaruvida xotin-qizlar faolligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi loyihasini yaratishda, shuningdek, rahbar xotin-qizlarni tayyorlash bo'yicha 60 soatlik malaka oshirish kursi dasturi loyihasini va mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish hamda xotin-qizlarni kasbga o'rgatish ishlarini yanada jadallashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining 2023-yil 27-iyuldagi 02-01/1013-son ma'lumotnomasi). Natijada, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatida belgilangan vazifalar samaradorligini oshirishga, kiber tahdidlardan himoyalash tizim takomillashuviga erishishda ilmiy metodologik manba sifatida xizmat qilgan;

zamonaviy kibermakonda ta'lim va tarbiya jarayonini milliy mentalitetga mos ravishda tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishning pragmatik vositalari mantiqiy asoslanganligiga oid taklif-tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzurida madaniyat markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish jamoatchilik kengashi vazifalarini bajarishga qaratilgan tanlovlar, xalq ijodiyoti va tomosha san'atining tuman, shahar festivallarini o'tkazish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tuzilgan kompleks chora-tadbirlar dasturini va "O'zbekiston madaniy merosi – Yangi Renessans asosi" mavzusida xalqaro anjumanni o'tkazishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2023-yil 8-avgustdagi 02-12-15-5750-son ma'lumotnomasi). Natijada, vazirlikning vakolat doirasidan kelib chiqib, amalga oshirgan chora-tadbirlarini muvaffaqiyatli bajarilishiga xizmat qilgan;

ta'lim-tarbiya sifatiga destruktiv ta'sir etuvchi kompyuter, telefon, internet, audio va video mahsulotlarining kibermakondagi harakatlanish mexanizmini umumiylikdan xususiylikka o'tish bosqichi korrelyatsion (o'zaro ta'sir omillariga ko'ra) uslubda isbotlanganligiga doir ilmiy, amaliy hamda metodologik g'oyalar, taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, iqtidorini

ro'yobga chiqarish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlab chiqilgan konsepsiya loyihasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va Sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 17-iyuldagi 04-13-21-1932-son ma'lumotnomasi). Natijada, vazirlik tizimidagi tashkilotlarda ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlashda, ta'lim sofligini tashqi ta'sirlardan asrashda, tarbiya borasida asrlar davomida sinovdan o'tgan milliy qadriyatlarga tayanish borasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy islohotlarning normativ-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

zamonaviy kibermakonda barqaror ta'lim va tarbiya olish tizimi samaradorligini ta'minlashda "oila-mahalla-ta'lim" bilan bog'liq ijtimoiy muhitning funksional integratsiyalashuvini kuchaytirish imkoniyatlari integral xususiyatiga ko'ra mantiqiy dalillanganligiga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining O'zbekiston Respublikasi aholisini buzg'unchi g'oya va harakatlar ta'siridan asrash, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash maqsadida "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasini targ'ib etish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar ssenariysini ishlab chiqishda va joylarda faoliyat yuritayotgan mahalla fuqarolar yig'inlari raislarining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosarlari, otinoyilarning bilimlarini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi loyihasini yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2023-yil 17-iyuldagi 02-02/1-5302-son ma'lumotnomasi). Natijada, diniy tashkilotlar bilan mustahkam o'zaro hamkorlik qilish, jamiyatda dinlararo va millatlararo tinchlik va totuvlikni ta'minlash yuzasidan qo'mita tizimida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qilgan;

kibermakonning psixologik ta'siridan xoli ta'lim-tarbiya muhitini yaratishda ijtimoiy makon, real zamonga bog'liq komponentlar (hudud, muhit, sotsial munosabat)ni hisobga olish zarurati falsafiy jihatdan asoslanganligiga doir xulosa va amaliy takliflardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali"ning 2023-yil may va avgust oylarida efirga uzatilgan "O'zbekiston yoshlari", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" kabi dasturlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 9-avgustdagi 04-36-1193-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarda zamonaviy kibermakondan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, ular ongida voqelikka ongli ravishda munosabat bildirish, axborot-texnologik yangiliklarni qabul qilishda milliy qadriyatlarga, ming yillik urf-odatlariga amal qilish kabi milliy mentalitetni shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilinib, sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini

chop etilishi tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola (12 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 236 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar asosli bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Kibermakon fenomeni, yo‘nalishlari, ta’sir doirasi, atributlari borasidagi ilmiy-nazariy g‘oyalarning ijtimoiy-falsafiy tahlili”** nomli birinchi bobida inson salohiyatining mahsuli bo‘lgan kibermakon omiliga bo‘lgan munosabat yoritilib, asosiy e’tibor ijtimoiy turmush tarzimizga yengillik va qulaylik olib kirishga xizmat etishi nazarda tutilgan kibermakon fenomeni o‘rganilib, unga obyektiv voqelikda misli ko‘rilmagan qudratga ega texnik-texnologik vosita sifatida qaraladi. Jumladan, inson borlig‘ida, jamiyat tadrijiy taraqqiyotiga ta’sir etib, zamon va makon o‘zgarishining yangi davrini (sun‘iy intellekt) boshlab berishi ijtimoiy-falsafiy tahlil etilib, bu jarayon vaqt o‘tgani sari inqilobiy taraqqiyot ko‘rsatkichlari bilan jamiyat hayotida sezilarli chizgilar qoldirayotganligi ochib beriladi. Xususan, kibermakonning ta’lim va tarbiya jarayoniga ta’siri tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Albatta, buning ikki tomoni (pozitiv va negativ) mavjud bo‘lib, birinchidan kibermakon imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalangan millatlarda yuksalish ko‘zga tashlanayotgan bo‘lsa, ikkinchidan “ko‘rmaganning ko‘rgani qursin” naqliga monand ko‘r-ko‘rona taqlid va o‘zlashtirish yo‘lidan borayotgan xalqlarda ma’naviy tanazzulga uchrash holati kechmoqda.

Tadqiqotning bu qismidaki kibermakonga falsafiy kategoriya sifatida qaralib, uning jamiyat ijtimoiy hayotidagi mavqiyi baholangan, shuningdek, mavjud ma‘lumotlar qiyosiy tahlil etilib, olingan natijalar o‘rtasidagi korrelyatsion aloqadorlik kuchini aniqlovchi metodologik yondashuv ilgari surilgan. Ilmiy tadqiqot jarayonida Universiti Teknologi Petronas professorlari Ch.Teoh va A.K.Mahmoodlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarga alohida e’tibor qaratilgan, ularning keltirib o‘tishicha, kibermakonda hech bir davlat orol emas, chunki dunyo endi bog‘langan global iqtisodiyotdir. Shuning uchun ham, xalqaro hamkorlik miqyosida har bir mamlakatni himoya qilish va kiberjinoyatlardan asrash strategiyasini yaratish zarur.¹ Olimlarning xulosasi bo‘yicha, kiberiqtisodiyot

¹ Teoh. C.S., & Mahmood. A.K. National cyber security strategies for digital economy//Journal of Theoretical and Applied Information Technology. Vol.95. –№ 23. 2017. –P. 6510-6517.

imkoniyatlarini ochish asnosida, uning oldida turgan istiqbolli vazifalarni topish mumkin.

Masalaning bu qismi borasida bizning qarashlarimiz bo'yicha birinchidan, kiberiqtisodiyot fenomeniga falsafiy kategoriya sifatida qarash, uning ichki ziddiyat va qarama-qarshiliklarda kechayotgan rivojini ko'rish imkonini beradi. Ikkinchidan, insoniyat kiberiqtisodiyotning zarur yoki zarur bo'lmagan tomonlarini topishi uchun, avvalo, quyidagi: "Kiber tahdidlarga tayyormizmi?", "Kiberxavfsizlik strategiyasi mavjudmi?", "Mavjud kiberxavfsizlik tizimi raqamli iqtisodiyotni himoya qilish imkoniga egami?", "Raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq global hisobotlar, sanoat va bozor tendensiyalari kafolatlimi?", "Raqamli iqtisodiyot muvaffaqiyati va ishlab chiqish o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudmi?" – kabi savollarga javob topish kerak, deb hisoblaymiz.

Xullas, zamonaviy jamiyatda kibermakonni yuzaga keltiruvchi obyektiv va subyektiv omillar, ular o'rtasidagi dialektik aloqadorlik kategoriyasi ko'rsatilib, global kibermakonning ijtimoiy-psixologik aspektlari aniqlashtirilgan. Ushbu bob yakunida quyidagi xulosalar ilgari surilgan:

kiberpsixologiya auditoriyasida internet tarmog'i, inson faoliyatining intellektual mahsuli sifatida paydo bo'lib, shaxs psixologiyasini turli dominlardan boshqarish tizimiga aylanmoqda;

zamonaviy dunyoda axborotlarni sotsializatsiyalash, ayniqsa, jamiyat manfaatiga qaratilgan kiber-axborot jarayonlarini analitik tahlil qilish bilan bog'liq ko'plab masalalar ochiq qolmoqda;

axborot texnologiyalari rivojiga e'tibor berilsa, axborot maydoni mafkuraviy poligon sifatida kengayib borayotganligini ko'rsatadi. Bunga kiberpsixologik ta'sir vositalari (facebook, twitter, instagram, snapchat) yorqin misoldir;

jamiyat taraqqiyotini kompyuterlashish tendensiyasi qanchalik oshib borsa, uning psixologik ta'siri ham shunchalik rivojlanib boraveradi;

kiber tahdid ko'lamini kengayib borishi ortidan iqtisodiy qaramlik, intellektual salohiyatsizlik, ma'naviy marginallashtirish yuzaga keladi.

Tadqiqotning birinchi qismi bo'yicha ilgari surilgan taklif va tavsiyalar:

1. Kiberpsixologiya inson ongiga salbiy ta'sir etuvchi omil emas, aksincha, shaxs kamolotidagi vosita bo'lishi kerak, buning uchun biz kibermakon psixologiyasidan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini o'zlashtirishimiz zarur.

2. Inson o'z taqdirini o'zi belgilashi yoki shaxsiyatiga motivatsion ruh berishi jarayonida xulq-atvorida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni bilishi kerak, natijada o'zini boshqarish qobiliyatiga ega bo'ladi.

3. Kiberpsixologik ta'sir o'tkazishga ixtisoslashtirilgan subyektiv omillar qarmog'iga uchramaslik uchun kibermakondagi deviant xulq-atvorni kamaytirish yoki oldini olishga qaratilgan xatti-harakatlarni topishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni jonlantirish talab etiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Ta'lim-tarbiya tizimiga ta'sir etuvchi kibermakon omili rivojiga qaratilgan zamonaviy konsepsiyalar"** deb nomlanib, unda ilmiy-nazariy tadqiqot (zamonaviy konsepsiyalar)larda ko'rib chiqilayotgan muammolar ijtimoiy-falsafiy tahlil etilib, murakkab va serqirra jarayonlardan iborat bo'lgan kibermakonning ta'sir vositalarini shaxs mentalitetiga bog'liq

ekanligi yoritilgan. Inson subyekt sifatida doimiy ijtimoiy munosabatga kirishi, jamiyat taraqqiyotiga u yoki bu darajada ta'sir o'tkazishi, bu ta'sir natijalarining xarakteri shaxs ongi va tafakkuri, amaliy o'zgartiruvchan faoliyati kiber transformatsiyaga bog'liq bo'lib qolayotganligiga e'tibor qaratilib, ilmiy tadqiqot xulosalari bilan dalillangan.

Tadqiqotning mazkur qismida kibermakon fenomeni imkoniyatlari, global auditoriya kengligi, turli qatlamlar miqyosidagi ta'sir kuchini baholovchi mezonlar ko'rib chiqilgan. Jumladan, ta'lim-tarbiya jarayonida kibermakon aurasidan foydalanishga yo'naltirilgan zamonaviy konsepsiyalarda ilgari surilayotgan g'oyalar, taklif va tavsiyalar ham e'tibor markaziga olinib, ta'lim va tarbiya samaradorligiga to'siq bo'luvchi kibermakon omillari turkumlashtirilgan. Shuningdek, davriy ketma-ketlikda har bir tadqiqot natijalari ijtimoiy-falsafiy tahlil etilib, olingan natijalar o'rtasidagi bog'liqlik darajasi matematik uslubda topilgan. Bu o'z navbatida tadqiqotning amaliy natijadorligiga xizmat qilgan. Bundan tashqari, kibermakonning subyektiv omillari bo'lgan iqtisodiy tendensiyalari, ma'naviy yuksalish kriteriyalari topilib, jamiyat hayotini taraqqiy etishiga bevosita xizmat qiluvchi ta'lim va tarbiya jarayonining harakatlanish mexanizmi ishlab chiqilgan hamda tadqiqot jarayonida ta'lim va tarbiya sifat samaradorligini keltirib chiqaruvchi ijtimoiy lokomotiv drayverlarni ishlab chiqish bo'yicha aniq konseptual g'oyalar taqdim etilgan.

Bobda keltirib o'tilgan statistik ma'lumotlar, ilmiy tadqiqot xulosalari qiyosiy tahlil etilganda bir qator konsepsiyalarga murojaat etilgan. Xususan, norvegiyalik professor S.A.Rye nazariyasiga e'tibor qaratilgan, uning tadqiqotida quyidagilarga urg'u berilgan: global onlayn ta'limning ta'lim sifatiga ta'siri va uning xalqaro rivojlanish darajasidagi konteksti o'rganiladi; oliy ta'limning magistr yo'nalishida onlayn ta'limni qo'llash effekti va uni qamrab olish geografiyasi ko'rib chiqiladi; global onlayn ta'limni oliy ta'lim standartlari, xalqaro rivojlanish darajasi, iqtisodiy foydalilik ko'rsatkichi empirik dalillanadi; onlayn ta'lim samaradorligini aniqlash bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotning empirik qismi Yevropa va Afrikadan kelgan talabalar ishtirokidagi "Internetga asoslangan magistrlik dasturi" misolida ko'rib chiqiladi; empirik tahlilida talabalarni xalqaro miqyosda onlayn hamkorlik qilish chog'ida geografik jihatdan harakatini jismoniy cheklash natijasi o'laroq qanday samaradorlikka erishish mumkinligi ochiqdan, bu holatni ularning motivatsiyasi va onlayn ishtirokida qanday ta'siri bo'lishi mumkinligi ochib beriladi.¹ Ushbu konseptual g'oyalarni o'rganish jarayonida bizning xulosamiz quyidagicha bo'ldi:

birinchidan, kibermakonda virtual ta'limni joriy etish, xalqaro oliy ta'limni tashkillashtirish, ular o'rtasidagi integratsiyani bog'lovchi ta'lim standartlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi;

ikkinchidan, virtual ta'lim taraqqiyoti va uning xalqaro rivojlanish darajasi – talabalarining onlayn ta'lim olishga bo'lgan layoqati bilan belgilanadi;

uchinchidan, talabalarda virtual ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish orqali inson kapitalini oshirish mumkin. Buning natijasida jamiyat milliy, ijtimoiy,

¹ Rye S.A. The educational space of global online higher education//Geoforum. –№ 15. 2014. –P. 6-14.

iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanishga erishadi. Ammo bu turli mintaqalarda shakllangan milliy mentalitet va jamiyatning rivojlanganlik darajasi bilan bog'liq kechadi.

Ikkinchi bobni umumlashtiruvchi tadqiqot natijalari yaxlitlashtirilib, quyidagi fikr mulohazalar berilgan:

onlayn ta'limda talabaning vaqt yo'qotishi tezlashadi, chunki yoshlar onlayn materiallarni o'rganishga ko'proq vaqt sarflashadi. Bu oflayn ta'limga nisbatan ko'proq vaqt sarflanadi degani. Ushbu fikrni ochiqdigan bo'lsak, auditoriyada berilgan savolda insonning psixologik ta'siri kuchli bo'ladi. Talaba tomonidan berilgan javobdan qoniqish o'qituvchiga bog'liq bo'lganligi sababli talaba uchun javob variantlarini turli shaklda topishga ehtiyoj kam bo'ladi;

virtual jarayon qanday formatda kechishidan qat'i nazar, talaba yoshlarning har biri bilan o'zaro aloqa o'rnatish, kibermakon vositalari, masalan, internet samaradorligini ta'minlash zarurati hamon kun tartibida qolmoqda;

bugungi onlayn ta'lim formatida o'qitish tizimini joriy etishdagi asosiy muammolardan biri – bu onlayn ta'lim platformasida asosiy o'rin tutuvchi ma'lumotlar bazasining yetarli darajaga shakllanmaganligi hisoblanadi. Bundan tashqari, axborotning buzilishi va yo'qolishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni to'g'ri yo'lga qo'yish o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda;

virtual ta'limni boshqarish mexanizmlarini tabaqalashtirilgan variantda ishlab chiqish zarur shartlardan hisoblanadi. Chunki onlayn ta'lim virtual sinflarda kechadi. O'qituvchi va talabalar oddiy sinflardan farqli o'laroq barcha funktsiyalariga ega bo'lgan virtual platformada munosabatga kirishadi.

Tadqiqotning ikkinchi qismi bo'yicha ilgari surilgan taklif va tavsiyalar:

1. Onlayn ta'lim platformalarini texnik va texnologik jihatdan takomillashtirish kerak, negaki virtual muloqatning bugungi webinar.ru, zoom, skype va boshqalar kabi platformalariga e'tibor qaratsak, texnik uzilishlar, mega kuchlanish tezligining pastligi, trafik, ya'ni moliyaviy xarajatlarning ko'pligi, sifat ko'rsatgichlarining qoniqarsizligiga sabab bo'lmoqda.

2. Ijtimoiy tarmoqlar onlayn ta'lim platformasida transformator vazifasini o'tab kelmoqda. Ammo, afsuski, ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri va samarali foydalanish bo'yicha metodik ko'rsatmalar, axloqiy kodeks, maqsadli foydalanish madaniyati qay darajada kabi ko'plab savollar ochiq qolmoqda. Shu jihatdan yondashganda "ijtimoiy tarmoqdan foydalanishning axloqiy kodeksi"ni ishlab chiqish zarur.

3. Axborot texnologiyalarining bugungi taraqqiyoti ijtimoiy hayotimizda odatiy holdek o'rnashdi. Har daqiqa sodir bo'layotgan axborot buzilishi va uni biz tomondan ist'emol qilinayotganligi, palliativ shaklda bo'lsa-da, qabul qilinmoqda. Bu hozirgi axborot likvidligini ko'rsatmoqda. Shu jihatdan qaraganda, axborot asri globallashuvi natijasi o'laroq yoshlarni barkamol etib tarbiyalash masalasi o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, bolalarimizga axloqiy tarbiya berish borasidagi zamonaviy qarashlarimizni o'zgartirmas ekanmiz, yoshlar qalbida qaror topib borayotgan "ommaviy madaniyat" eskalatsiyasi ta'siridan chiqib ketishga imkon bo'lmaydi.

“Zamonaviy kibermakon salbiy ta’siridan xoli ta’lim va tarbiya integratsiyalashuviga erishishning metodologik asoslari” deb nomlangan tadqiqotning uchunchi bobida ta’lim va tarbiya samaradorligiga erishish yo’llari muhokama etilgan bo’lib, unda ko’rib o’tilgan asosiy masalalar sirasiga ta’lim va tarbiya jarayoni shaxs ijtimoiy ong shaklini o’zgartirishga qaratilganligi, uning sofliqi, mo’tadilligi, ta’sirchanligi, yakdilligi, taraqqiyot yacheykalari bilan bog’liqligi ko’p jihatdan tashqi omillarga bog’liqligi, ta’lim va tarbiyani qay darajada tashkillashtirish, boshqarish hamda barqaror taraqqiyot manfaatlariga mos shaklda nazorat qilish tizimini ishlab chiqish zarurati qiyosiy tahlil etilib, mavjud muammolar o’rtasidagi korrelyatsion aloqadorlik kuchi topilgan.

Ushbu bobda zamonaviy ta’lim-tarbiyani tashkillashtirish va boshqarishda kibermakon omilining pozitiv ta’sir etish imkoniyatlari ochiqdigan bo’lib, uning ichki imkoniyatlariga bog’liq bo’lmagan tashqi elementlar o’rtasidagi aloqadorligi falsafaning alohidalik, maxsuslik, umumiylik kategoriyalari kesimida tahlil etilgan. Xususan, sifatli ta’limni joriy etishga to’siq bo’lib kelayotgan ijtimoiy qusurlar zarurat, tasodif, butun va qismlarga ajratilib, olingan natijalar mantiqiy izchillikda sistemaga solinadi. Bu jarayondagi asosiy e’tibor kibermakonning salbiy ta’sir doirasidan xoli ta’lim va tarbiya tizim samaradorligiga erishishda jamoatchilik nazoratining o’rni masalasiga alohida urg’u berilgan. Shuningdek, mavjud muammolar yechimiga qaratilgan ijtimoiy mexanizmlarni ishlab chiqish bo’yicha konseptual g’oyalar ilgari surilgan. Bu bobda malayziyalik olimasi Siti Hajar Halilining konsepsiyasiga alohida e’tibor qaratilgan. Uning qarashlari bo’yicha oliy ta’limda o’quv jarayonini tashkil etish va uni masofaviy boshqarish asosiy o’rin tutadi. Tadqiqotchi ilgari surgan ilmiy xulosalar:

o’quv jarayonini tezlashtirish, talabalarda onlayn ta’lim olish ko’nikmasini oshirish, o’qituvchilarning vaqti-vaqti bilan bajarishi kerak bo’lgan vazifalarini nazorat qilib borish hamda ularni talabalar uchun mazmunli masofaviy ta’lim berishiga ko’proq vaqt ajratishiga erishish mumkin;

onlayn ta’lim orqali ta’lim berish sifatiga ta’sir etuvchi negativ omillarni topishga, turli hududlarda joylashgan muassasalar va talabalar o’rtasida ma’lumotlar almashinuvini osonlashtirishga, talabalar bilimni baholash, ya’ni ular fanlarni qanchalik yaxshi o’zlashtirayotganligini analiz qilib borishga qulay imkoniyat yaratish mumkin.¹ Olima tomonidan ko’tarilgan bu masala bo’yicha bizning mulohazamiz dissertatsiyada quyidagicha bildirilgan:

birinchidan, jamiyat evolyutsiyasi va inson ehtiyojlarining ortib borishi natijasida shunga mos ravishda turli ta’lim shakllari ham texnologik jihatdan takomillashuvga olib keldi. Ammo bu o’zlikdan kechish evaziga amalga oshmasligi kerak;

ikkinchidan, ta’lim modernizatsiyasi o’zini texnologiyadan foydalanishga aylantirdi, hatto an’anaviylikni siqib chiqarishga olib boruvchi yangi shakllarni ham yuzaga keltirdi. Ammo bu rivojlangan davlatlar qo’llayotgan onlayn yoki virtual ta’limni ko’r-ko’rona joriy etish kerak degani emas;

¹ Halili S.H. Technological advancements in education 4.0 // The Online Journal of Distance Education and e-Learning. –№ 7 (1). 2019. –P. 63-69.

uchinchidan, kibermakonda o'qitish shakli yoki toifasi insoniyat e'tiboridan chetda qolmadi, aksincha, kundalik texnologiyalarning rivojlanishi bilan u yanada kuchaytirildi. Bu, albatta, biz kabi rivojlanayotgan davlatlarga dunyo ta'lim standartlariga o'tishimizga chaqiriq hisoblanadi. Faqat ijtimoiy-iqtisodiy, milliy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda o'zgarishimiz kerakligini istisno etmaslik kerak.

Uchinchi bob yakuni bo'yicha quyidagi umumlashtiruvchi xulosalar berilgan:

XXI asrda axborot texnologiyalari orqali kirib kelgan kibermakon tendensiyalari yoshlar kamolotiga qaratilgan ta'lim samaradorligini oila, mahalla, ijtimoiy muhitda olinayotgan tarbiya barqarorligiga bog'lab qo'ydi. Bu o'z navbatida, tarbiya tadrijiyligini berilayotgan ta'lim sifatiga bog'liqligini ko'rsatmoqda;

kibermakon ta'sirida dunyoning ijtimoiy-madaniy qiyofasi o'zgarmoqda. Masalan, kibermakon imkoniyatlari yoshlarga ota-ona bermayotgan tarbiyani virtual kurslardan, ma'ruzalardan yoki boshqa ko'rinishdagi sun'iy intellektdan olishiga shart-sharoit yaratmoqda. Yoki, aksincha, kiber ta'lim fazosi orqali turli ma'lumotlar ba'zasiga ega bo'lmoqda;

axborot texnologiyalari taraqqiyoti: texnik aloqa, transformatsion integratsiya, ikki tomonlama harakat, onlayn muloqot, ta'lim va tarbiyani virtualizatsiya qilish, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi virtual maydonni tashkil etish, qayta aloqani yaratish, ma'lumot almashinuvini oshirish, kibermakon ta'sir doirasini kengaytirish kabi omillar bilan izohlanmoqda;

ta'lim va tarbiya jarayonini tashkillashtirish yoki boshqarish mexanizmlari takomillashuvida kibermakon ma'lumotlarni raqamlashtirish maydoni, axborotlar massivini cheksizlantirish ombori, virtual haqiqat orqali inson psixologiyasini boshqarish texnologiyasi, sun'iy idrok hosil etish "fabrikasi", bilim manbaini kodlashtirish xizmati kabi jarayonlarni tashkillashtiruvchi-boshqaruvchi-nazorat qiluvchi murakkab tizim bo'lib qolmoqda;

kibermakon – insonga erkin harakat qilish, har qanday axborotdan mustaqil foydalanish, turli shakldagi ma'lumotlar almashish, global kommunikatsiyalarga ulanish, qismlarni butunga birlashtirish, ijtimoiy qatlamlarni, geografik joylashuvidan qat'i nazar, virtual auditoriyaga jamlash, ming yillar davomida inson omilida qaror topib kelgan chegaralarini ochib beruvchi voqelik vazifasini o'tamoqda. Demak, inson genofondini saqlab qolish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni deformatsiyaga uchramasligi yo'lidagi sa'y-harakatlarni yanada kuchaytirish talab etiladi.

Tadqiqotning uchinchi qismi bo'yicha ilgari surilgan taklif va tavsiyalar:

1. Ta'lim va tarbiya samaradorligi ko'p jihatdan kibermakon qamrovidan chiqib keta olmayotganligini inobatga olib, zamonaviy kibermakondan foydalanish ko'nikmasini beruvchi texnologik madaniyat konsepsiyasini ishlab chiqishni tavsiya etamiz. Bu konsepsiya orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini belgilovchi ijtimoiy munosabatlar tizimini harakatga keltirish mumkin.

2. Yoshlar tarbiyasida ota-ona mas'uliyatini oshirish, ularni ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirishga qaratilgan axloqiy jonlanish, ma'naviy yuksalish, mas'uliyatli tarbiya strategiyalarini ishlab chiqish, bu borada sustkashlik,

beparvolik, loqaydlik qilgan holatlarda ma'muriy javobgarlikka tortishning huquqiy mexanizmini ishlab chiqish zarur.

3. Kiber xavfsizlik muhitiga erishish uchun kibermakon muhitida ta'lim va tarbiya integratsiyasini muvofiqlashtirish imkoniyatlarini topish, muammoning pedagogik aspektiga aniqlilik kiritish, psixologik ta'sir doirasi diapazonini belgilash va bu yo'lda olib borilayotgan ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarni rag'batlantirish mexanizmini yaratish talab etladi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Ta'lim va tarbiya tizimida kibermakonning salbiy ta'sirini kamaytirish imkoniyatlari hamda baholash mezonlari”** deb nomlanib, tadqiqotning bu qismida asosiy e'tibor ta'lim va tarbiya tizim samaradorligiga erishish imkoniyatlari ko'p jihatdan ularni amalga oshirish mexanizmlariga, istiqbolli rejalarini to'g'ri ishlab chiqilganligiga bog'liq ekanligi asoslanadi. Shuningdek, bu yo'nalishda davlat bosh islohotchiligida olib borilayotgan strategiyaning istiqboldagi vazifalari ham ijtimoiy-falsafiy tahlil etilib, mavjud muammolar ijtimoiy makon, tarixiy zamon xususiyalariga qarab turkumlashtiriladi va jamiyat hal etishi kerak bo'lgan aniq ijtimoiy prognozlar ilgari suriladi.

Mazkur tadqiqotda ta'lim va tarbiya samaradorligiga to'siq bo'luvchi kibermakon omillarini aniqlashtirish mezonlari ishlab chiqildi ham harakatlanish dislokatsiyasi bo'yicha taklif va tavsiyalar taqdim etildi. Xususan, yoshlar ta'lim va tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi kiberhujum omillarini baholash mezonlari aniqlashtirildi. Bu jarayon korrelyatsion uslubda ochib berildi. Ushbu bobning ikkinchi paragrafida kibermakon fenomeniga sifatli ta'lim va tarbiya olish yo'lidagi vosita sifatida qarashga undovchi istiqbolli vazifalar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, uchinchi bandeda O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishda ta'lim va tarbiya tadrijiyligini ta'minlashning amaliy natijadorligiga olib boruvchi “ijtimoiy kiber xavfsizlik” konsepsiyasini yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Ushbu taklifni ilgari surishda Lusofon universiteti professori J.Pinheiro nazariyasiga urg'u beriladi. Olimning diqqat markazida shaxsiy ma'lumotlarni buzib kirishiga qaratilgan tahdid, shaxs qadriyatlarini kamsitishga urinish va bu boradagi jamoatchilik qarashlari turgan. Jumladan, J.Pinheiro shunday ilmiy xulosalarni keltirib o'tadi:

tadqiqot ishtirokchilarining atigi 11,2 foizi (258 ta ishtirokchidan 29 nafari) kiberxavfsizlik bo'yicha bilimga ega ekanligi aniqlandi;

onlayn xavfsizligini to'g'ri himoya qilishga qaratilgan ishlar samara bermayapti;

kiberxavfsizlikni bolalarning akademik hayotiga ta'siri borasidagi ilmiy izlanishlar yetarli emas;

bugungi kunda ta'lim muassasalarining deyarli barchasi kiberjinoyatchilar uchun haqiqiy “oltin koni” hisoblanadi. Ular har bir talaba, o'qituvchi va xodimlarning minglab ma'lumotlarini osongina buzib kirishmoqda.¹ Tadqiqotchi xulosalariga qo'shimcha ravishda quyidagi fikr-mulohazalarni keltirib o'tganmiz:

¹ Pinheiro J. Review of cyber threats on Educational Institutions. // In Proceedings of the Digital Privacy and Security Conference. -Porto, Portugal: Universidade Lusófona do Porto, 2020. – P.43

birinchidan, yangi institutsional tuzilma, nazorat va muvozanatning o'rnatilishi kiberxavfsizlik bo'yicha institut boshqaruvini samarali ravishda kuchaytirishi mumkin;

ikkinchidan, OTMlar orasida makro va mikro darajada kiberxavfsizlik KPI ko'proq kontekstli va dinamik tarzda amalga oshirilishi kerak;

uchinchidan, kiberxavfsizlik bo'yicha ta'lim muassasasining e'tiborlari, maqsadlari va vazifalarini aniq ifodalovchi siyosat bayonotlarini ishlab chiqilishi, ma'lum majburiyatlar bilan rasmiylashtirilishi va yaxshi hujjatlashtirilishi orqali ham kiber tahdid imkoniyatlarini cheklashga olib kelishi mumkin.

Bobni shakllantirish jarayonida olib borilgan ilmiy-nazariy tadqiqot natijalari amaliy ahamiyat kasb etuvchi quyidagi xulosalarni ishlab chiqishga turtki bo'ldi:

strategik maqsadiga ko'ra kibermakon omili – doimiy rivojlanib borish tendensiyasida kechmoqda. Chunki kiberfazo tarkibiy tuzilmasi yuqori murakkablik darajasi: dinamik o'zgaruvchanligi, psixologik imkoniyatlaridagi mutanosibligi, vositachi sifatida namoyon bo'layotgan elementlarining serqirraligi, jamiyat boshqaruv jarayonida alohida maqomga ega ekanligi, katta miqdordagi respondentlar auditoriyasiga ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi;

aloqa o'rnatish, munosabatlarni tashkillashtirish, maqsadlarni integratsiyalashtirish, ijtimoiy muomalada jozibadorlikni ta'minlash, inson ongiga ta'sir etishga qaratilgan yangi protokollar, standartlar va uskunalarni ishlab chiqishning doimiy takomillashuvini boshqarish, kibermakonning ma'lum bir sigmentini namoyon etmoqda;

jamiyat miqyosida ro'y beradigan ommaviy hodisalar ko'pincha kichik, maishiy hisoblangan ta'sir elementlari qurshovida qolishiga sabab bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda, kibermakonni boshqarish tuzilmasidagi ta'sir elementlarini tashkiliy jihatdan nazorat qilish, uni millatlarning milliy mentalitetiga moslash, urf-odat, an'anaviy qadriyatlarga monand shaklda ta'lim va tarbiya jarayoniga xizmat etishiga erishish, ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rnini pozitivlik jihatidan o'zgartirish kibermakonning avtonom boshqarish tizimiga o'tishi bilan belgilanadi;

hozirgi davrda kibermakon ta'sir vositalarini ta'lim va tarbiya jarayoniga yetkazayotgan zararini baholash mezonlari ishlab chiqilmaganligi sababli, uning ijtimoiy hayotimizga kirib kelish mexanizmini ko'rishimiz qiyin kechmoqda. Chunki kibermakon ta'sir mexanizmlari sifatida namoyon bo'layotgan telefon, planshet, kompyuter imkoniyatlari XXI asr trendi darajasiga chiqdi. Ular orqali jamoatchilik ongiga ta'sir etishga qaratilgan audio, video, televideniye mahsulotlari sohalararo integratsiyani yuzaga keltirdi;

bugungi yoshlar dunyoqarashida kibertahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitet hosil etishga qaratilgan ta'lim yo'nalishlarini ochish kerak. Xususan, barcha o'rta umumta'lim dargohlarida "Ijtimoiy psixologiya", "Axborot xuruji", "Ma'naviy meros", "Ajdodlar o'giti" kabi maxsus fanlarni joriy etish zarurati mavjud. Oliy ta'lim yurtlarida "Ma'naviy marginallashuv oqibatlari", "Ommaviy madaniyat alomatlari", "O'zlikni saqlash zarurati" singari majburiy fanlar turkumini yaratish zamon talabi bo'lib qolmoqda.

Ta'lim va tarbiya tizim samaradorligini ta'minlash ko'rsatkichlarini ko'tarishda yoshlar ongi birlamchi omildir. Shu sababli bu boradagi takliflarimiz quyidagicha:

1) bolalarga 10 yoshgacha qo'l telefon, planshet va kompyuterdan nazoratsiz foydalanishiga ruxsat bermaslik kerak. Chunki 7 yoshgacha (maktabgacha ta'lim dargohida) bola ongi shakllansa, 10 yoshgacha (maktabning boshlang'ich sinfida) savodxonligi shakllanadi;

2) mamlakat miqyosida internet dominlariga cheklovlar o'rnatish kerak. Negaki farzandining moddiy ta'minotini yarataman deb, ko'pchilik ota-onalarimiz mehnat migratsiyasida yurgan vaqt oralig'ida, bola ijtimoiy nazoratsiz qolmoqda. Ushbu bolalarga qarash uchun tayinlangan enagalarning "qorni to'qning – qorni och bilan nima ishi bor" qabilidagi yondashuvi ortidan farzandlarimiz ongida, ta'lim va tarbiyasida ma'naviy qusurlar paydo bo'lmoqda;

3) televideniya efirga uzatilayotgan musiqiy videoroliklar, milliy va jahon kinoseriallari, saviyasi sayoz, milliy mentalitetimizga yot bo'lgan ko'rsatuvlarni (masalan, "Yor-yor") namoyish etilishini cheklash zarur. Chunki ular orqali yoshlar ongida psixologik o'zgarishlar sodir bo'lib, ularda ibo-hayo, oilaga, ota-onaga sadoqat, o'zlikka hurmat kabi insoniylik pardalari ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda.

XULOSA

Tadqiqot jarayonida olib borilgan izlanishlar, olingan natijalar, erishilgan ilmiy-nazariy, amaliy natijalar quyidagi xulosa va takliflarni ilgari surishga asos bo'ldi:

1. Jamiyat ijtimoiy hayotining barcha qatlamlari ichida qaror topayotgan kibermakon – inson omilini boshqaruvchi, uning ong shaklini kompyuter taraqqiyotiga bog'lovchi kiber fazo kengligida kompyuter ichidagi inson ta'limotini ilgari suruvchi fenomen bo'lib, mavjudlik ichidagi mavjudlik tamoyilini kasb etmoqda. Bunga kibersiyosat, kiberiqtisod, kibermadaniyat yoki kiberhayot kabi kategoriyalar misoldir.

2. Kibermakon taraqqiyotida inson omilining muhim rol o'ynashi, uning ijtimoiylashish tendensiyasini oshirmoqda. Xususan, identifikatsiya, xavfsizlik, konfidensiallik, reabilitatsiya kabi elementlarni virtual muhitda jonlantirilishi inson subyekti ta'sirini yanada kuchayishiga olib keldi. Masalan, kibermakonning rivojlanish dinamikasida yuzaga kelgan integrallashuv jarayoni, kompyuter imkoniyati orqali ilmiy-texnikaviy yuksalishni yuzaga keltiruvchi omil bo'lib, moddiy va ma'naviy integrallashuv zaruratini ko'rsatdi.

3. Kibermakon omilini falsafiy kategoriya sifatida ko'rsatuvchi kiber fazo, virtual borliq, virtual ong, virtual reallik, kiber xavfsizlik, kiber tahdid kabi tushunchalar kibermakonning obyektiv va subyektiv xususiyatlarini namoyon etib, uning dinamik rivojlanishi relatsion qoidasiga zid kechishini ham isbotladi. Shu sababli kibermakonni prekognitiv yondashuvda tadqiq etish ko'proq samara berishini keltirib o'tgan holda, virtual olamda kechayotgan voqelikni, ya'ni onlayn

makonni his etishda shaxsda kiberong ko'nikmasini shakllantirish zarur deb hisoblaymiz.

4. Bugungi zamon insonlari virtual olamdan tashqarida mavjud bo'lmay qolayotganligi ham haqiqat. Bu kibermakonni inson omilidan tashqarida mavjud bo'lgan obyektiv borliq ekanligini ko'rsatmoqda. Chunki biz ijtimoiy hayotimizni: xarid qilish, o'yin-kulgi, ijtimoiy aloqalarga kirishish, ma'lumot qidirish yoki uzatishga bog'lab qo'ydik. Ayni chog'da kibermakon fazoviy kengligida o'zimizni erkin his etish, virtual dunyo bilan o'zaro munosabatimizni, kerak bo'lsa, o'zligimizni shakllantirish imkoniyatini izlamoqdamiz. Shu sababli ayrim hollarda o'zimizni kibermakon obyektiga qarama-qarshi qo'yishimiz – jamiyat ijtimoiy hayotidagi ichki diffuziyani keltirib chiqarishiga ham sabab bo'lmoqda.

5. Kibermakonning obyektligini topish, unga subyektiv ta'sir etuvchi elementlar tabiatini tushunish, texnologik taraqqiyoga olib keluvchi drayverlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kontingentini topish, avvalo, kiberpsixologiya ilmini talab etadi, negaki bugungi taraqqiyot omili bo'lgan internet tarmog'i inson faoliyatining intellektual mahsuli sifatida shaxs psixologiyasini turli dominlardan boshqarish tizimiga aylanmoqda. Shu sababli psixologik nuqtayi nazardan axborot texnologiyalari rivojiga e'tibor berilsa, axborot maydoni mafkuraviy poligon sifatida kengayib borayotganligini ko'rsatadi. Bunga kiberpsixologik ta'sir vositalari, ya'ni facebook, twitter, instagram, snapchatlar yorqin misoldir.

6. Jamiyat taraqqiyotini kompyuterlashish tendensiyasi qanchalik oshib borsa, uning psixologik ta'siri ham shunchalik rivojlanib boraveradi. Buning oqibatida ijtimoiy hayotda iqtisodiy qaramlik, intellektual salohiyatsizlik, ma'naviy marginallashtirishni kuchayishiga yo'l ochiladi. Demak, kiberpsixologik ta'sir o'tkazishga ixtisoslashtirilgan subyektiv omillar qarmog'iga uchramaslik uchun kibermakondagi deviant xulq-atvorni kamaytirish yoki oldini olishga qaratilgan xatti-harakatlarni topishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni jonlantirish kerak.

7. Zamonaviy ta'lim innovatsiyasi sifatida baholanayotgan onlayn ta'limda qit'alararo integratsiya muhim omil hisoblanib, uni to'g'ri tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilib borish dolzarb hisoblanadi. Binobarin virtual jarayon qanday formatda kechishidan qat'i nazar, talaba yoshlarning har biri bilan o'zaro aloqa o'rnatish, kibermakon vositalari, masalan, internet samaradorligini ta'minlash zarurati kun tartibiga chiqaveradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, onlayn ta'lim platformasida asosiy o'rin tutuvchi ma'lumotlar bazasini yetarli darajaga shakllantirmasdan turib, bu tizimga o'tish kutilgan natija bermaydi.

8. Onlayn ta'limni tashkillashtirishda axborotning buzilishi va yo'qolishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar ham to'g'ri yo'lga qo'yilishi zarur. Masalan, aloqa kanallari bitta diapazonda qo'yilishi, barcha kanallarda onlayn materiallar, onlayn platformalar umumiy nuqtada integratsiyalashgan bo'lishi shart hisoblanadi. Sababi shundaki, turli omillarga ko'ra aloqa kanallarini cheklashning iloji bo'lmasa, qaysi kanaldan foydalanishni ko'rsatish, tashkiliy masalalarni hal qilish, muammoli vaziyatlarni muhokama qilishda turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

9. Bugungi ijtimoiy tarmoqlar onlayn ta'lim platformasida transformator vazifasini o'tab kelmoqda. Ammo, afsuski, ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri va oqilona foydalanish bo'yicha metodik ko'rsatmalar, axloqiy kodeks, maqsadli foydalanish madaniyati qay darajada kabi ko'plab savollar ochiq qolmoqda. Chunki kiber ta'lim integratsiyasida funksionallashuv tendensiyasi oshib bormoqda. Bu o'z navbatida ijtimoiy hayot elementlari o'rtasida virtuallashuv jarayonlarini tezlashishiga olib keladi. Inson omili chekinib, virtual ong darajasi oshadi. Shu sababli virtual ta'limni boshqarish mexanizmlarini tabaqalashtirilgan variantda ishlab chiqish zarur.

10. Kibermakon drayveri bo'lgan internet ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar onlayn ta'limning barcha turdagi shakllariga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Xususan, onlayn o'yinlar, ijtimoiy tarmoqdagi muloqotlar, YouTube videolari, internetdan olinadigan ma'lumotlarning haddan tashqari ko'pligi, ular orasidagi soflikning yo'qolishiga, dezinformatsion axborotlarning oshishiga, buning natijasida maqsadli onlayn ta'lim olish imkoniyatlarida uzilishlar yoki maqsaddan adashish yuza kelmoqda. Shu sababli Janubiy Karolina universiteti professori C.Nicole – bugungi tahlikali zamonda axborot sofliги yo'qolmoqda degan edi.

11. Kibermakon kengligida bizni o'ziga tortayotgan internet tarmoqlaridagi "twitter", "facebook"da e'lon qilinayotgan ma'lumotlar xilma-xilligi biz tomondan iste'mol qilingan ma'lumotlarni ajrata olish ko'nikmamizdan ustun kelmoqda. Ayniqsa, talaba yoshlar bu masalada ko'proq axborot savodxonligiga ehtiyoj sezmoqda. Shuning uchun uzatilayotgan yangiliklarni aniqlashda, ta'lim olish jarayonida internet makonidagi dezinformatsion axborotlardan saqlanishda ko'plab to'siqlarga uchramoqda. Chunki ular axborot iste'molida malakasizlik qilmoqda.

12. XXI asrda axborot texnologiyalari orqali kirib kelgan kibermakon tendensiyalari yoshlarga ilm olish uchun dunyo bo'ylab harakatlanishni cheklab, unga muqobil ravishda onlayn harakatni taqdim etmoqda. Boshqacha aytganda, onlayn kurslar, masofaviy ta'lim, virtual aloqa kabi kiberfazo xizmatlari orqali o'zimizga kerakli "ilm-ko'nikma-malaka"ni hosil qilishimizga shart-sharoit yaratilmoqda. Ammo ta'lim va tarbiya jarayonini tashkillashtirish yoki boshqarish mexanizmlarini takomillashuvida kibermakon ma'lumotlarni raqamlashtirish maydoni, axborotlar massivini cheksizlantirish ombori, virtual haqiqat orqali inson psixologiyasini boshqarish texnologiyasi, sun'iy idrok hosil etish fabrikasi, bilim manbaini kodlashtirish xizmati kabi jarayonlarni tashkillashtiruvchi? boshqaruvchi va nazorat qiluvchi murakkab, barqaror rivojlanish dinamikasiga ega tizimga aylandi.

13. Kibermakon ta'sir mexanizmlari sifatida namoyon bo'layotgan omma psixologiyasiga ta'sir etish, boshqarish va nazorat qilish vositalaridan telefon, planshet, kompyuter imkoniyatlari XXI asr trendi darajasiga chiqdi. Ular orqali jamoatchilik ongiga ta'sir etishga qaratilgan audio, video, televideniye mahsulotlari sohalararo integratsiyani yuzaga keltirdi. Bu jarayonni nazorat qilish zarur. Ya'ni o'zaro axborot almashishni ta'minlashda, g'oyalar transformatsiyasini amalga oshirishda, fikrlar xilma-xilligini shakllantirishda ehtiyotkorlikni yo'qotmaslik kerak. Chunki bugungi kibermakon shaxs ruhiyatida ma'naviy marginallashuvni qaror topishida, madaniyatlararo deformatsiyalashuvni

tezlashishida, xalqlar, millatlar, davlatlar milliy mentalitetiga oid qadriyatlarini yemirilishida konstruktiv asos bo'lmoqda.

14. Mahalla jamoatchilik nazoratini olib boruvchi eng ta'sirchan maskan hisoblanadi. Ammo buning uchun mahalla xizmatidan unumli foydalanish mexanizmini ishlab chiqish zarur. Bugungi zamon talabi mahalladagi nuroniy kengashiga maktabgacha va maktab ta'limi faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini olib boruvchi institut sifatida tashabbusni o'z qo'liga olishini qo'ymoqda. Negaki bugunga qadar mahalla faollari yoshlar tarbiyasiga mas'ul shaxs sifatida emas, balki vasiylik kengashining a'zosi vakolatida, ma'naviy homiy sifatida jalb etilib kelinmoqda. Bu tizim o'zini oqlamadi, deyish ham adolatli bo'ladi.

15. Yoshlarga berilayotgan ta'lim sifati oila, mahalla yoki tengqurlar orasida shakllangan tarbiyaviy muhitga bog'liq bo'lib, bu jarayondagi tadrijiylilikni ta'minlash "oila-mahalla-tengqurlar" integratsiyasini qay darajada ishlashiga bog'liqdir. Bu tizimni yo'lga qo'yish uchun kibermakon muhitida ta'lim va tarbiya integratsiyasini muvofiqlashtirish imkoniyatlarini topish, muammoning pedagogik aspektini ko'rish, psixologik ta'sir doirasiga aniqlilik kiritish va bu yo'lda olib borilayotgan ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarni rag'batlantirish mexanizmini yaratish talab etiladi.

Ushbu ilmiy-nazariy xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni amaliyotga kiritish tavsiya etiladi:

birinchidan, axborotlashgan jamiyatda inson omili birinchi darajaga ko'tarilib, shaxs sifatlarini ma'lum axloqiy qoidalar, normalar asosida shakllanishiga turtki bermoqda. Ta'lim va tarbiya samaradorligi ko'p jihatdan kibermakon qamrovidan chiqib keta olmayotganligini inobatga olib, zamonaviy kibermakondan foydalanish ko'nikmasini beruvchi texnologik madaniyat konsepsiyasini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bu konsepsiya orqali – yoshlarning ijtimoiy faolligini belgilovchi ijtimoiy munosabatlar tizimini harakatga keltirish mumkin;

ikkinchidan, yoshlarga ta'lim va tarbiya berish tadrijiyligini ta'minlash borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish, ota-ona shaxsiy mas'uliyatini oshiruvchi oilada bola tarbiyasi kodeksini ishlab chiqish va uning harakat mexanizmini olib boruvchi jamoatchilik kuzatuv kengashini tuzish maqsadga muvofiqdir;

uchinchidan, tarbiya birlamchi, ta'lim uni to'ldiruvchi omildir, bu ikki kategoriyaning harakat mexanizmida hech bir sabab, shu jumladan, iqtisodiy ta'minot ham, ijtimoiy to'siq bo'lmasligi lozim. Aks holda, ming yillar davomida milliy qadriyat darajasida shakllanib kelgan tarbiya masalasida marginallashuv yuzaga keladi. Biz jamiyat miqyosida ta'lim va tarbiya jarayoniga – biznes shakli sifatida qaramaslikni tavsiya etamiz;

to'rtinchidan, kibermakonning salbiy ta'sir doirasidan xoli ta'lim va tarbiya tizim samaradorligiga erishishda har bir fuqaroda shaxsiy mas'uliyatni oshirishga qaratilgan ijtimoiy-huquqiy mexanizmni ishlab chiqish zarur. Chunki yoshlar tarbiyasida ota-ona mas'uliyatini oshirish, ularni ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirishga qaratilgan axloqiy jonlanish, ma'naviy yuksalish, mas'uliyatli tarbiya strategiyasini yo'lga qo'yish orqali sustkashlik, beparvolik, loqaydlik kabi illatlarni bartaraf etish mumkin;

beshinchidan, hozirgi davrda kibermakon ta'sir vositalarini ta'lim va tarbiya jarayoniga yetkazayotgan zararini baholash mezonlari ishlab chiqilmaganligi, uning ijtimoiy hayotimizga kirib kelish mexanizmini aniqlashtirishda ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Demak, ijtimoiy gumanitar fanlar tizimida matematik tahlil metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Xususan, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishish yo'lida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarda korrelyatsion aloqadorlik uslubidan foydalanish taklif etiladi;

oltinchidan, zamonaviy dunyoda hech birimiz noto'g'ri ma'lumotlardan himoyalanişda ideal bo'la olmaymiz! Negaki axborotlarni ba'zan bilvosita qabul qilish, ist'emoldagi axborotni sintez qilishda potentsial zaifligimiz pand beradi. Shu sababli o'zimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz orqali zararli axborot manipulyatsiyasidan himoyalanişimiz mumkin.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.F.02.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

ЯЗДОНОВА САХИБА КУРБАНОВНА

**НЕГАТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННОГО
КИБЕРПРОСТРАНСТВА НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБРАЗОВАНИЯ И
ОБУЧЕНИЯ**

09.00.04 – Социальная философия

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФСКИХ НАУК (DSc)**

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2021.1.DSc/Fal84.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме) и размещен на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz) и на Информационно образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный консультант: Адуло Тадеуш Иванович
доктор философских наук, профессор

Официальные оппоненты: Хажиева Максуда Султановна
доктор философских наук, профессор
Норкулов Сухроб Дустмуратович
доктор философских наук, профессор
Бекмуродова Гулшода Хайитовна
доктор философских наук (DSc), доцент

Ведущая организация: Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий

Защита диссертации состоится «___» _____ 2024 года в ___ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Ф.02.02 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский Бульвар, дом 15, Тел. (0366) 239-13-87; факс: (8366) 239-11-40; e- mail: rektor@samdu.uz). Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, Исторический факультет, 1-й этаж, комната 105).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрирована за № ____). (Адрес: 140104, город Самарканд, Университетский Бульвар, дом 15. Тел (0366) 239-13-87; факс: (8366) 239-11- 40).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2024 года.
(реестр протокола рассылки № ____ от «___» _____ 2024 года).

Ш.Ш.Негматова
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философских наук (DSc), профессор

Х.А.Джуракулов
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философских наук (DSc), доцент

А.Р.Самадов
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых степеней,
доктор философских наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях непрерывного социально-экономического развития мира такие инструменты киберпространства, как искусственный интеллект, цифровая экономика, виртуальная коммуникация и онлайн-услуги, становятся неотъемлемой частью социальных трендов. Эти периодические изменения оказывают революционное влияние на проектирование, организацию, управление и мониторинг эффективности системы образования и других сфер жизни общества. Следовательно, задача защиты человеческого сознания от психологических угроз в современном киберпространстве остается актуальной. Разработка киберзащиты от этих угроз становится неотъемлемой частью стратегии обеспечения безопасности в цифровой среде. Необходима разработка международной стратегии идеологической профилактики, направленной на сохранение мировоззрения и интеллектуального потенциала молодежи, которая все чаще подвергается кибератакам.

Мировым научным сообществом проводятся исследования, направленные на обеспечение безопасности образования и обучения, на выработку методологии использования киберпространства в современном образовательном процессе не как киберугрозы, а как инструмента развития образования в интересах личности. В частности, важно провести исследования по обеспечению кибербезопасности информационных технологий, используемых в образовании и обучении, внедрить систему безопасного информирования, отбирающую целевую группу пользователей (обучающийся контингент) онлайн-контента в зависимости от возраста, разработать механизм контроля киберинформации, чтобы молодежь не попадала в киберловушки. В то же время необходимо создать «зелено-желто-красную» систему онлайн-контроля, регламентирующую деятельность каждого по получению информации киберсредствами, стандартизировать виртуальные образовательные программы, обновить и модернизировать существующие, постепенно выработать единый национальный режим их функционирования, что считается актуальной проблемой мировой науки.

Обеспечение гармонии образования и обучения в социальной жизни нашей страны, оценка его как фундамента будущего общества и разработка всех комплексных мер по обучению молодежи и оснащению ее силой современной науки становится одним из важнейших приоритетов государственной политики. В частности, развитие духовности невозможно без изменения системы образования и сознания, образование, воспитание и просвещение главные факторы социальной стабильности. Есть и прагматические реформы под общенациональным лозунгом: Наша единственная цель превратить систему дошкольного и школьного образования, систему высшего и среднего специального образования, учреждения науки и культуры в четыре целостных кольца Третьего Возрождения. Наконец, мы все должны глубоко понять и осознать одну истину: Сегодня на карту поставлены мир и безопасность нашего народа,

верующих мусульман, будущее наших детей, их образование и зрелость.¹ В связи с этим возникает объективная необходимость научного анализа механизмов, методов и средств борьбы со всеми факторами, негативно влияющими на качество образования и обучения.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит для решения задач, обозначенных в этих и других нормативных правовых документах в данной сфере. Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Указ от 28 февраля 2023 года №УП-27 о Государственной программе по реализации стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы в «год заботы о человеке и качественного образования», Указ от 29 апреля 2019 года №УП-5712 «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года», Указ от 8 октября 2019 года №УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года №УП-158 «Стратегия «Узбекистан – 2030», а также Постановление от 8 мая 2019 года №ПП-4312 «Об утверждении Концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года» и Закон «О кибербезопасности» Республики Узбекистан от 15 апреля 2022 года No ПРУ-764 - определяют цели и задачи по рассматриваемой тематике.

